


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISTE'MOL NARXLARI INDEKSI (2023- YIL YANVAR)




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BO'YICHA YIG'MA ISTE'MOL NARXLARI INDEKSI (INI), % da

Inflyatsiya bu – tovarlar va xizmatlar narxlari umumiy darajasining barqaror o'sishidir. Shu bilan birga, bu jarayonda ayrim tovarlar sezilarli qimmatlashishi, ayrimlari arzonlashishi va ayrimlarining narxlari umuman o'zgarmasligi mumkin. Bu eng keng tarqalgan talqin bo'lsada, biroq, inflyatsiya murakkab va turli xil namoyon bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir. **Inflyatsiyaning oqibatlari** ham iqtisodiy, ham ijtimoiy sohalarda namoyon bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, zamonaviy iqtisodchilar yuqori, nazoratsiz inflyatsiya ham, doimiy deflyatsiya ham o'zining salbiy oqibatlariga egaligi va inflyatsiya ko'rsatkichini ma'lum bir target (maqsadli ko'rsatkich)dan oshib ketmasligini ta'minlash hamda aholi va biznesning inflyatsion kutimalarini pasaytirish inflyatsiyaga qarshi siyosatning ustuvor yo'nalishlari bo'lishi zarurligi to'g'risidagi fikrga qo'shiladilar.


yanvar oyidagi yig'ma INI, % da

o'tgan oyga nisbatan



Mamlakat iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasini aks ettiruvchi muhim ko'rsatkich bu – **iste'mol narxlari indeksi (INI)** bo'lib, u o'zgarmas iste'mol tuzilmasiga ega bo'lgan holda tovarlar va xizmatlarning belgilangan to'plami qiymatining o'zgarishlarini ifodalaydi.

o'tgan yilning yanvar oyiga nisbatan



2023- yilning yanvar oyida o'tgan oyga nisbatan INI **100,8 %** ni tashkil etdi.

Yillik nisbatda (o'tgan yilning yanvariga nisbatan) ushbu ko'rsatkich **112,2 %** ga yetdi.


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA AYRIM XORIJIY DAVLATLARDAGI YIG'MA INI, % da

INI turli shakllarda dunyoning ko'plab davlatlarida, shu jumladan, qo'shni davlatlarda ham hisoblanadi.

Respublikada INIning hisoblash 1994- yilda XVJning texnik ko'magi ostida joriy qilingan.

INIning shakllantirishga "Iste'mol narxlari indeksi bo'yicha qo'llanma: Nazariya va amaliyot" (XVJ, IHRT, Yevrostat, BMT, YIK, Jahon banki va XMT) tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan Tovarlar va xizmatlarning iste'mol narxlari (tariflari) kuzatuvini tashkil etish hamda iste'mol narxlari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom (Davlat statistika qo'mitasining 2022- yil 27- sentabrdagi 33-son qarori bilan yangi tahriri tasdiqlangan) asos bo'lib xizmat qiladi. <https://lib.stat.uz>.

2022- yilda ayrim davlatlardagi* yig'ma INI, % da 2022- yil dekabrda 2021- yilning dekabriga nisbatan



*) milliy statistika xizmatlarining rasmiy saytlaridan olingan ma'lumotlar asosida

YANVAR OYIDA TOVARLAR VA XIZMATLAR INI, % da



Tasdiqlangan Uslubiy nizomga muvofiq, narxlarni ro'yxatga olish har oyning **10-** sanasidan **20-** sanasigacha amalga oshiriladi. Ma'lumotlarni yig'ish shunday tashkil etilganki, bu vaqt oralig'ida narxlarni ro'yxatga olish har bir tovar va xizmat bo'yicha bir marta amalga oshiriladi va qo'shni davrlar uchun ro'yxatga olish oralig'i bir kalendar oyni tashkil qiladi. INIning hisoblashda faqatgina inflyatsiya omillarini aniqlash uchun assortiment va hududiy siljishlar omillarining ta'siri chiqarib tashlanadi.

Narxlar o'zgarishini kuzatish uchun tovarlar va xizmatlar to'plamiga aholi xarajatlari tarkibidagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va vakilligini hisobga olgan holda tanlab olingan **510** ta pozitsiya kiradi.

TOVARLAR

XIZMATLAR


o'tgan oyga nisbatan



100,0 100,5 101,0 101,5 102,0

100,0 100,5 101,0 101,5 102,0

o'tgan yilning yanvariga nisbatan



100,0 105,0 110,0 115,0

100,0 105,0 110,0 115,0

2023- yilning yanvarida tovarlarning INI oy davomida **100,9 %** ni, xizmatlar bo'yicha esa **100,7 %** ni tashkil etdi. 2023- yilning yanvar oyida 2022- yilning yanvariga nisbatan INI tovarlar bo'yicha **113,3 %**, xizmatlarda esa **108,4 %** darajasida shakllandi.

TOVARLAR VA XIZMATLAR ASOSIY GURUHLARINING INI, % DA


Narxlar o'zgarishini kuzatish uchun shakllantirilgan **510 ta pozitsiyadan** iborat tovarlar va xizmatlar to'plami uchta yirik guruhga bo'lingan:

oziq-ovqat mahsulotlari (170 ta nomda),


nooziq-ovqat mahsulotlar (250 ta nomda),

xizmatlar (90 nomda).

Har oyda **10 mingdan** ortiq savdo nuqtalari va xizmat ko'rsatish obyektlari kuzatiladi, **120 mingdan** ortiq narx kotirovkalari qayd etiladi.



Oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha INI oy davomida **101,0 %** ni, nooziq-ovqat mahsulotlarda **100,6 %** ni, xizmatlarda **100,7 %** ni tashkil etdi.




2022- yilning yanvariga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha INI **115,4 %** ni, nooziq-ovqat mahsulotlarda **110,9 %** ni, xizmatlarda **108,4 %** ni tashkil etdi.


YANVAR OYIDA MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI HISOBISIZ INI, % da

o'tgan oyga nisbatan



YIG'MA INI





o'tgan yilning yanvariga nisbatan



TOVARLAR



OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI




2023- yil YANVAR

o'tgan oyga nisbatan

Ta'siri,
f.d.



Umumiy ta'sirdagi
ulushi, % da



2022- yilning yanvariga nisbatan

Ta'siri,
f.d.

Umumiy ta'sirdagi
ulushi, % da



INIn shakllantirish quyidagi ikkita ma'lumotlar manbasi asosida amalga oshiriladi:

1) uy xo'jaliklarida o'tkaziladigan tanlanma kuzatuvlar ma'lumotlari asosida shakllanadigan aholining iste'mol xarajatlari tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar;

2) hududlar, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari, namuna tovarlar tanlanmasi doirasida narxlarni qayd etish ma'lumotlari.

Shunday qilib, har bir pozitsiyaning (bo'lim, guruh, aniq tovar yoki xizmat) yig'ma ko'rsatkich o'zgarishiga ta'siri pozitsiyaning narx o'zgarishlari va xarajatlar tarkibidagi salmoq vaznidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

2023- yilning yanvarida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'zgarishlarining oylik yig'ma INI o'sish sur'atiga ta'siri **0,44 f.d.** ni tashkil etdi. Ularning hissasiga kuzatiladigan barcha tovarlar va xizmatlar umumiy ta'sirining **53,7 %** i atrofida to'g'ri keldi. Nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi umumiy o'sishning **26,8 %** ini (ta'siri **+0,22 f.d.**) tashkil etdi. Xizmatlar narxlari o'zgarishlarining ta'siri uchta asosiy guruhlar orasida eng past ko'rsatkichni qayd etib, **0,16 f.d. (19,5 %)** ga yetdi.

2023- yilning yanvarida yillik nisbatdagi yig'ma INI oziq-ovqat mahsulotlari (ta'siri **+6,51 f.d.**), nooziq-ovqat mahsulotlar (**+3,75 f.d.**) va xizmatlar (**+1,93 f.d.**) shakllandi. Ushbu ta'sir ulushlari **53,4 %**, **30,8 %** va **15,8 %** nisbatda shakllandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2020- yil 3- avgustdagi “O'zbekiston Respublikasining Milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4796-sonli** qarori bilan tasdiqlangan 2020-2025- yillarda O'zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirishning milliy strategiyasini amalga oshirish bo'yicha “YO'L XARITASI”ning 36-bandi ijrosini ta'minlash yuzasidan, 2021- yil yanvar oyidan boshlab, Davlat statistika qo'mitasi MDHga a'zo davlatlar orasida birinchilardan bo'lib iste'mol narxlari indeksini (INI) to'liq BMTning Classification of Individual Consumption According to Purpose (COICOP) 2018 xalqaro standartiga asoslangan, Maqsadlar bo'yicha individual iste'mol tasniflagichi – 2018 (MIIT – 2018) asosida shakllantirishni joriy etdi.

O'zbekiston Respublikasining Maqsadlar bo'yicha individual iste'mol tasniflagichi – 2018 (O'zR MIIT – 2018) 2019- yilda iqtisodiyot va ijtimoiy sohada dolzarb masalalarning statistik tahlilini o'tkazish bo'yicha xalqaro tashkilotlarning tavsiyalarini o'rganish asosida uslubiy qo'llanmalarni takomillashtirish va joriy etish bo'yicha Harakatlar rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

yanvar o'tgan oyga nisbatan

Nomi	2020- yil*	2021- yil	2022- yil	2023- yil
I. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar	101,1	101,3	101,3	101,1
II. Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari	100,0	100,6	100,8	100,3
III. Kiyim va poyabzal	100,3	100,4	100,9	100,9
IV. Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari	100,0	102,3	100,3	100,2

* Statistika maqsadlarda 2020- yil uchun narxlar indeksi O'zR MIIT–2018 bazasi tuzilmasida qayta hisob-kitob qilingan.

yanvar o‘tgan oyga nisbatan

Nomi	2020- yil	2021- yil	2022- yil	2023- yil
VI. Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko‘rsatish	100,3	100,5	100,8	100,6
VI. Sog‘liqni saqlash	100,3	100,8	101,2	101,0
VII. Transport	100,2	100,5	99,6	100,7
VIII. Axborot va aloqa	100,1	100,1	100,2	100,1
IX. Dam olish, sport va madaniyat	100,7	100,5	101,5	101,1
X. Ta‘lim sohasidagi xizmatlar	100,1	100,1	100,2	100,2
XI. Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	101,3	101,5	102,3	101,0
XII. Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar	100,0	100,0	100,0	100,1
XIII. Maishiy tovarlar va xizmatlar, ijtimoiy himoya va turli tovarlar va xizmatlar	100,5	100,6	100,8	100,8

2023- yilning yanvarida oylik qisqa muddatli INI 2022- yilning yanvaridagi ko‘rsatkichga nisbatan “Transport” (VII bo‘lim) (100,7 % ga 99,6 %) va “Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar” (XII) (100,1 % ga 100,0 %) bo‘limlaridan boshqa barcha asosiy bo‘limlar bo‘yicha past bo‘ldi. “Kiyim va poyabzal” (III), “Ta‘lim sohasidagi xizmatlar” (X) va “Maishiy tovarlar va xizmatlar, boshqa tovarlar va xizmatlar” (XIII) bo‘limlar bo‘yicha INI 2023 va 2022- yillarning yanvar oylarida barobar bo‘ldi.

O'zR MIIT – 2018 BO'LIMLARI BO'YICHA INI, % da

yanvar oyida o'tgan yilning yanvariga nisbatan

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR		SPIRTLII ICHIMLIKLAR VA TAMAKI MAHSULOTLARI		KIYIMLAR VA POYABZAL	
2021- yil	115,7	2021- yil	109,5	2021- yil	108,4
2022- yil	113,0	2022- yil	111,1	2022- yil	105,9
2023- yil	115,2	2023- yil	110,1	2023- yil	109,4

TURAR JOY XIZMATLARI, SUV, ELEKTR, GAZ VA BOSHQA YONILG'I TURLARI		UY-RO'ZG'OR ASBOBLARI, MAISHIIY TEXNIKA VA TURAR JOYLARGA XIZMAT KO'RSATISH		SOG'LIQNI SAQLASH	
2021- yil	108,0	2021- yil	108,8	2021- yil	113,3
2022- yil	102,8	2022- yil	107,9	2022- yil	108,9
2023- yil	105,0	2023- yil	112,7	2023- yil	116,5

TRANSPORT		AXBOROT VA ALOQA		DAM OLISH, SPORT VA MADANIYAT	
2021- yil	109,9	2021- yil	103,3	2021- yil	106,5
2022- yil	112,3	2022- yil	103,0	2022- yil	110,2
2023- yil	111,0	2023- yil	101,6	2023- yil	113,9

TA'LIM SOHASIDAGI XIZMATLAR		RESTORANLAR VA MEHMONXONALAR XIZMATLARI		SUG'URTALASH VA MOLIYAVIIY XIZMATLAR	
2021- yil	105,7	2021- yil	116,4	2021- yil	104,1
2022- yil	111,6	2022- yil	115,6	2022- yil	100,4
2023- yil	104,1	2023- yil	122,0	2023- yil	104,4

MAISHIIY TOVARLAR VA XIZMATLAR, TURLI TOVARLAR VA XIZMATLAR	
2021- yil	110,6
2022- yil	110,9
2023- yil	114,0


IZOH: O'zR MIIT – 2018 tasniflagichi 2021- yildan INInI hisoblash amaliyotiga joriy etilgan. Statistik maqsadlarda 2021- yilning uzoq muddatli narxlar indeksini shakllantirish uchun 2020- yildagi qisqa muddatli INI O'zR MIIT – 2018 tuzilmasi bo'yicha qayta hisob-kitob qilingan.

“OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR” BO‘LIMI (I) BO‘YICHA INI, % DA

yanvar o‘tgan oyga nisbatan



Donli ekinlar
va yorma mahsulotlari



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.



Baliq va boshqa
dengiz mahsulotlari



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.




Yog‘lar va moylar



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.




Sabzavotlar, ildizmevalilar
va dukkaklilar



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.




Tayyor oziq-ovqat
mahsulotlari va boshqa
oziq-ovqat mahsulotlari



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.




Go‘sh t va go‘sh t
mahsulotlari



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.




Sut, boshqa
sut mahsulotlari
va tuxum



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.




Mevalar va
yong‘oqlar



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.




Shakar, qandolat
mahsulotlari va
desertlar



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.



Spirtsiz ichimliklar



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.


2023- yilning yanvarida 100,0 % lik darjadan past INI “Yog‘lar va moylar” (**99,6 %**) va “Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar” (**99,5 %**) guruhlarida kuzatildi.

Bundan tashqari, “Donli ekinlar va yorma mahsulotlari” (**100,2 %** ga **100,9 %**), “baliq va boshqa dengiz mahsulotlari” (**100,1 %** ga **100,9 %**), “Mevalar va yong‘oqlar” (**100,9 %** ga **103,1 %**), “Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va oziq-ovqat mahsulotlari” (**100,1 %** ga **100,6 %**), “Spirtsiz ichimliklar” (**100,1 %** ga **100,5 %**) guruhlarida bo‘yicha 2023- yil yanvar oyidagi INI 2022- yil yanvardagi ko‘rsatkichga nisbatan past bo‘ldi.

“OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR” BO‘LIMI (I) BO‘YICHA INI, % DA

yanvar o‘tgan yilning yanvariga nisbatan

Donli ekinlar va yorma mahsulotlari



Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari




Yog‘lar va moylar



Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar



Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa mahsulotlar



2023- yilning yanvarida mevalar va yong‘oqlar bo‘yicha yillik nisbatdagi INI **92,3 %** darajasida kuzatildi.

Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar bo‘yicha ushbu ko‘rsatkich **114,9 %** ga yetdi.

2022- yilning yanvariga nisbatan donli ekinlar va yorma mahsulotlari INI **130,5 %** ni, shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar bo‘yicha **123,1 %** ni, sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum bo‘yicha **119,3 %** ni, spirtsiz ichimliklar bo‘yicha **112,8 %** ni tashkil etdi. Boshqa guruhlar bo‘yicha narxlar indeksi yig‘ma INI ko‘rsatkichidan oshmadi.



Go‘sht mahsulotlari



Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum




Mevalar va yong‘oqlar












Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar



Spirtsiz ichimliklar




ALOHIDA TURDAGI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI INI, % da


	2020- yil	2021- yil	2022- yil	2023- yil
GURUCH VA GURUCH OQSHOG'I 				
o'tgan oyga nisbatan	99,5	99,8	99,7	100,9
o'tgan yilning yanvariga nisbatan	102,3	114,1	97,5	125,5
BUG'DOY UNI 				
o'tgan oyga nisbatan	100,8	100,8	101,3	100,2
o'tgan yilning yanvariga nisbatan	130,3	114,9	108,0	143,0
SUYAKLI MOL GO'SHTI 				
o'tgan oyga nisbatan	100,7	100,5	99,4	100,8
o'tgan yilning yanvariga nisbatan	126,1	120,9	109,1	111,4
QO'Y GO'SHTI 				
o'tgan oyga nisbatan	100,6	100,4	99,8	100,7
o'tgan yilning yanvariga nisbatan	125,3	125,4	108,4	111,0
XOM SUT 				
o'tgan oyga nisbatan	101,1	101,6	101,3	100,1
o'tgan yilning yanvariga nisbatan	120,7	118,4	115,0	116,6
TUXUM 				
o'tgan oyga nisbatan	103,0	100,5	99,1	102,0
o'tgan yilning yanvariga nisbatan	134,0	134,4	99,9	132,0
PAXTA YOG'I 				
o'tgan oyga nisbatan	100,0	101,3	100,1	99,5
o'tgan yilning yanvariga nisbatan	102,9	134,0	128,0	106,8
KUNGABOQAR YOG'I 				
o'tgan oyga nisbatan	100,0	102,0	99,8	99,3
o'tgan yilning yanvariga nisbatan	104,6	134,0	130,4	107,8
SHAKAR 				
o'tgan oyga nisbatan	100,4	102,4	101,0	98,6
o'tgan yilning yanvariga nisbatan	115,5	123,3	123,7	140,2

2023- YILNING YANVARIDA ALOHIDA TURDAGI MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI INI, % DA

o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning yanvariga nisbatan



“Mevalar va yong‘oqlar” va “Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar” guruhlarini bo‘yicha joriy yilning yanvar oyida shakllangan qisqa muddatli INIga mavsumiylik omili muhim ta‘sir ko‘rsatdi. Ushbu guruhlar bo‘yicha oylik INI mos ravishda **100,9 %** va **107,7 %** ni tashkil etdi.


2023- yilning yanvarida o‘tgan yilning yanvariga nisbatan uzoq muddatli INI “Mevalar va yong‘oqlar” guruhi bo‘yicha **92,3 %** ni tashkil etdi. “Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar” bo‘yicha ushbu ko‘rsatkich **114,9 %** ga yetdi.

■ narxlari oshgan mahsulotlar
■ narxlari pasaygan mahsulotlar

2023- YIL YANVAR OYIDA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTLICHIMLIKLER ASOSIY GURUHLARIDAGI NARXLAR O'ZGARISHINING YIG'MA INI O'SISH (PASAYISH) SUR'ATIGA TA'SIRI, f.d.da

o'tgan oyga nisbatan

Jami ta'siri **+0,44** f.d.




Mavsumiylik omili "Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar" bo'limi bo'yicha shakllangan qisqa muddatli INIga ham, yig'ma INIga ham ta'sir qildi. Meva-sabzavot mahsulotlari narxlarining o'zgarishlari hisobiga oylik yig'ma INI **0,36 f.d.** o'sdi.

Yog'-moy mahsulotlari hamda "Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar" guruhida narxlarning pasayishi tutib turuvchi omil bo'lib xizmat qildi. Ularning hisobiga yig'ma INI jami **0,02 f.d.** pastladi.

2023- YIL YANVAR OYIDA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTLICHIMLIKLAR ASOSIY GURUHLARIDAGI NARXLAR O'ZGARISHINING YIG'MA INI O'SISH (PASAYISH) SUR'ATIGA TA'SIRI, f.d.da

o'tgan yilning yanvariga nisbatan

Jami ta'siri **+6,1 f.d.**



“Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” bo'limiga kiruvchi tovarlar guruhlarida 2023- yilning yanvar oyidagi 2022- yil yanvariga nisbatan yillik yig'ma INI o'sish sur'atiga donli ekinlar va yorma mahsulotlari narxlari o'zgarishlarining ta'siri **2,6 f.d.** ni tashkil etdi.


Mevalar va yong'oqlar narxlarining pasayishi tutib turuvchi omil sifatida xizmat qilib, yig'ma INI ni **0,3 f.d.** pasaytirdi.

“SPIRTLII ICHIMLIKLAR, TAMAKI MAHSULOTLARI” BO‘LIMI (II) BO‘YICHA INI, % DA


SPIRTLII ICHIMLIKLAR

yanvar	o‘tgan oyga nisbatan	o‘tgan yilning yanvariga nisbatan
2020- yil	100,0	
2021- yil	100,8	108,8
2022- yil	100,9	110,5
2023- yil	100,1	110,1


Aroq




Vino



Konyak




Pivo




TAMAKI MAHSULOTLARI

yanvar	o‘tgan oyga nisbatan	o‘tgan yilning yanvariga nisbatan
2020- yil	100,0	
2021- yil	100,2	111,8
2022- yil	100,5	112,5
2023- yil	100,7	110,0

Sigaretlar



Boshqa tamaki mahsulotlari



“KIYIM VA POYABZAL” BO‘LIMI (III) BO‘YICHA INI, % DA



KIYIM




POYABZAL


yanvar o‘tgan oyga nisbatan




yanvar o‘tgan yilning yanvariga nisbatan




KIYIM TIKISH UCHUN MATERIALLAR




KIYIMLARNI TOZALASH, TA‘MIRLASH, TIKISH VA IJARAGA BERISH




USTKI KIYIM




BOTINKALAR, TUFLILAR VA BOSHQA POYABZALLAR



BOSHQA KIYIM PREDMETLARI VA FURNITURA



POYABZALLARNI TOZALASH, TA‘MIRLASH VA IJARAGA BERISH





■ yanvar o‘tgan oyga nisbatan

■ yanvar o‘tgan yilning yanvariga nisbatan

“TURAR JOY XIZMATLARI, SUV, ELEKTR, GAZ VA BOSHQA YONILG‘I TURLARI” BO‘LIMI (IV) BO‘YICHA INI, % DA

TURAR JOY UCHUN AMALDAGI IJARA HAQI*



TURAR JOYLARGA XIZMAT KO‘RSATISH, TA‘MIRLASH VA QO‘RIQLASH



*) kuzatuvga 2021- yilda kiritilgan

SUV TA‘MINOTI VA TURAR JOYLARNI SAQLAB TURISH BILAN BOG‘LIQ BOSHQA XIZMATLAR

ELEKTR, GAZ VA YONILG‘INING BOSHQA TURLARI



“Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari” bo‘limida joriy yilning yanvar oyida narxlar deyarli o‘zgarmadi.

Turar joylarga xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash uchun materiallar bo‘yicha INI oy davomida **100,2 %** ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, guruhga kiruvchi tovarlarning qisqa muddatli narxlar indeksi tebranishlari **99,9 %** dan (sement)

100,7 % gacha (kranlar, smesitellar, ventillar va boshqa) oraliqda bo‘ldi.

Oy davomida asosiy turdagi kommunal xizmatlar narxlarida o‘zgarishlar kuzatilmadi.

Ushbu bo‘lim bo‘yicha yillik nisbatdagi INI 2023- yilning yanvarida **105,0 %** ni tashkil etdi.

**“UY-RO‘ZG‘OR ASBOBLARI, MAISHIY TEXNIKA
VA TURAR JOYLARGA KUNDALIK XIZMAT KO‘RSATISH”
BO‘LIMI (V) BO‘YICHA INI, % DA**

yanvar o‘tgan oyga nisbatan				yanvar o‘tgan yilning yanvariga nisbatan		
2020- yil	2021- yil	2022- yil	2023- yil	2021-yil	2022- yil	2023- yil
MEBEL, UY-RO‘ZG‘OR ASBOBLARI VA TUKLI GILAMLAR						
100,1	100,4	100,9	100,6	105,8	107,1	110,5
UY XO‘JALIKLARIDA ISHLATILADIGAN TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI						
100,4	100,3	101,0	100,8	108,2	106,6	112,8
MAISHIY ASBOBLAR						
100,3	100,3	100,5	100,5	106,4	109,3	109,9
SHISHA IDISHLAR, OVQATLANISH UCHUN ASBOBLAR VA UY-RO‘ZG‘OR ANJOMLARI						
100,3	100,3	100,5	100,4	107,8	106,6	109,7
KUNDALIK TURMUSHDA VA BOG‘DORCHILIKDA ISHLATILADIGAN ASBOBLAR VA MOSLAMALAR						
100,2	100,4	100,6	100,4	107,1	106,5	110,2
UY XO‘JALIGINI YURITISH BILAN BOG‘LIQ HOLDA ISHLATILUVCHI TOVARLAR VA XIZMATLAR						
100,3	100,8	101,0	100,6	115,0	108,9	117,7

Joriy yilning yanvarida maishiy mebel bo‘yicha INI **100,2 %** dan **100,8 %** gacha oraliqda tebrandi.

Asosiy turdagi maishiy texnikalar bo‘yicha INI **99,9 %** dan (yirik oshxona asboblari) **100,7 %** gacha (mayda oshxona anjomlari) oraliqda tebrandi. Oshxona anjomlari va uy-ro‘zg‘or buyumlari bo‘yicha INI oy davomida **100,4 %** ni tashkil etdi.


Kundalik turmushda va bog‘dorchilikda ishlatiladigan asboblari va moslamalar bo‘yicha INI diapazoni joriy yilning yanvar oyida **100,3 %** dan (motorsiz asboblari) **100,7 %** gacha (elektr batareyalar)ni tashkil etdi.

Maishiy yuvish va tozalash vositalari bo‘yicha INI oy davomida **100,7 %** darajasida, uy xo‘jaligini yuritish va maishiy xizmatlar bo‘yicha **100,4 %** darajasida shakllandi.

“SOG‘LIQNI SAQLASH” BO‘LIMI (VI) BO‘YICHA INI, % DA

yanvar
o‘tgan oyga nisbatan



DORI VOSITALARI VA TIBBIYOT MAHSULOTLARI





yanvar o‘tgan yilning
yanvariga nisbatan




AMBULATORIYADA DAVOLASH BO‘YICHA XIZMATLAR



STATSIONARDA DAVOLASH BO‘YICHA XIZMATLAR



SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI BOSHQA XIZMATLAR




Joriy yilning yanvar oyida stomatologik profilaktik xizmatlar bo‘yicha INI oy davomida **102,9 %** ni, diagnostika vizualizatsiyasi va tibbiy laboratoriyalar xizmatlari bo‘yicha **101,1 %** ni, dori vositalari bo‘yicha **100,9 %** ni tashkil etdi.

Statsionar xizmatlari bo‘yicha INI **100,1 %** ni tashkil etdi.




“TRANSPORT” BO‘LIMI (VII) BO‘YICHA INI, % DA


TRANSPORT VOSITALARINI SOTIB OLISH




SHAKSIY TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANIS



YO‘LOVCHI TASHISH TRANSPORTI XIZMATLARI



TOVARLARNI TASHISH BO‘YICHA XIZMATLAR



■ yanvar oyida o'tgan oyga nisbatan

■ yanvar o'tgan yilning yanvariga nisbatan

2023- yilning yanvar oyida qator hududlarda benzin narxlarida pasayish kuzatildi. Ushbu davrda, umuman respublika bo'yicha INI **99,9 %** ni tashkil etdi.

Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish xizmatlari sohasida 2023- yilning yanvar oyida narxlar darajalari barqaror bo'ldi. Avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlari bo'yicha INI oy davomida **100,3 %** ga yetdi.

Havo transportida yo'lovchi tashish xizmatlari narxlari tebranishlarining yuqori chegarasi **106,1 %** ni tashkil etib, bu milliy valyuta kursining tebranishlari hamda Xitoyga pandemiya boshida to'xtatilgan aviaqatnovlarning qayta yo'lga qo'yilishi bilan bog'liq. Ushbu yo'nalishda tariflar avia xizmatlar bozorida joriy holatni hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqilgan bo'lib, mazkur o'zgarishlar narxlarning o'rtacha darajalarida namoyon bo'ldi.

AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA USKUNALARI

yanvar oyida o‘tgan oyga nisbatan



yanvar oyida o‘tgan yilning yanvariga nisbatan

Axborot va kommunikatsiya usakunolari bo‘yicha INI joriy yilning yanvarida **100,1 %** ni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2020/2022- yillardagi mos ko‘rsatkichlardan past bo‘ldi.

Axborotlarni qayta ishlash uchun uskunalar narxlari indeksi **100,2 %** darajasida, ovoz va tasvirlarni qabul qilish, yozib olish va aks ettirish uchun uskunalarda **100,3 %** darajasida shakllandi. Mobil telefon uskunolari narxlari o‘tgan oy darajasida saqlanib qoldi.

AXBOROT VA ALOQA SOHASIDAGI XIZMATLAR

yanvar oyida o‘tgan oyga nisbatan




yanvar oyida o‘tgan yilning yanvariga nisbatan


Axborotlashtirish sohasidagi xizmatlar orasida joriy yilning yanvarida narxlarning o‘shishi faqat kompleks telekommunikatsiya xizmatlarida kuzatilib, INI **100,9 %** ni tashkil etdi. Ushbu xizmat turining salmoq vazni hamda mazkur sohada kuzatiladigan boshqa xizmatlar narxlari barqarorligi hisobiga oylik INI **100,0 %** darajasida shakllandi.

“DAM OLISH, SPORT VA MADANIYAT” BO‘LIMI (IX) BO‘YICHA INI, % DA


DAM OLISHNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA XIZMATLAR




MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA XIZMATLAR




KOMPLEKS DAM OLISHNI TASHKIL ETISH




BOG‘DORCHILIK MAHSULOTLARI VA UY HAYVONLARI



GAZETALAR, KITOBLAR VA KANSELYARIYA TOVARLARI



DAM OLISH UCHUN BOSHQA TOVARLAR



■ yanvar o'tgan oyga nisbatan ■ yanvar o'tgan yilning yanvariga nisbatan

“Dam olish, sport va madaniyat” (IX) bo‘limi bo‘yicha INI 2023- yil yanvar oyida o‘tgan oyga nisbatan **101,1 %** ni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkich yanvar oyida odatga ko‘ra nashr qilinadigan gazetalar, jurnallar va boshqa davriy nashrlar narxlarining o‘zgarishlari ta’sirida shakllandi. Ularning narxleri har yilning boshida xarajatlarni hisobga olgan holda qayta ko‘rib chiqiladi. Xususan, kuzatiladigan gazetalar bo‘yicha INI respublika bo‘yicha o‘rtacha **119,5 %** ga, jurnallar bo‘yicha **119,3 %** ga yetdi.

“TA'LIM SOHASIDAGI XIZMATLAR ” BO'LIMI (X) BO'YICHA INI, % DA

MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH

yanvar	o'tgan oyga nisbatan	o'tgan yilning yanvariga nisbatan
2020- yil	100,0	
2021- yil	100,0	115,2
2022- yil	100,2	113,5
2023- yil	100,0	100,8

Ta'lim xizmatlari bozorida narxlarning o'rtacha darajalarida 2023- yilning birinchi oyida o'sish kuzatildi. X bo'lim bo'yicha qisqa muddatli INI **100,2 %** ga yetdi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda shartnoma asosida davlat OTMLarida o'qish uchun to'lovlar miqdori oy davomida o'zgarmadi.

Qator hududlarda repetitorlar xizmatlari narxlarida o'zgarish qayd etilib, buning natijasida ushbu xizmat INI respublika bo'yicha o'rtacha **101,0 %** darajasida shakllandi.

Bundan tashqari, ta'lim kurslarida o'qish uchun to'lovlar miqdorida o'sish kuzatilib, INI **100,2 %** ni tashkil etdi.

OLIY TA'LIM

yanvar	o'tgan oyga nisbatan	o'tgan yilning yanvariga nisbatan
2020- yil	100,0	
2021- yil	100,0	100,8
2022- yil	100,0	109,8
2023- yil	100,0	102,2

BOSQICHLARGA BO'LINMAGAN TA'LIM

yanvar	o'tgan oyga nisbatan	o'tgan yilning yanvariga nisbatan
2020- yil	100,3	
2021- yil	100,4	106,4
2022- yil	100,5	112,5
2023- yil	100,6	110,0

“RESTORANLAR VA MEHMONXONALAR XIZMATLARI” BO‘LIMI (XI) BO‘YICHA INI, % DA


OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA ICHIMLIKLARNI YETKAZIB BERISH BO‘YICHA XIZMATLAR




yanvar oyida o‘tgan oyga nisbatan




Restoranlar, kafe va shu kabi korxonalar



yanvar o‘tgan yilning yanvariga nisbatan




Oshxonalar, kafeteriyalar va gazakxonalar




MEHMONXONALAR XIZMATLARI




yanvar oyida o‘tgan oyga nisbatan




Mehmonxonalar



yanvar o‘tgan yilning yanvariga nisbatan



Sanatoriylar, dam olish uylari



■ yanvar o‘tgan oyga nisbatan

■ yanvar o‘tgan yilning yanvariga nisbatan

2020-2022- yillar davomida har yili yanvar oyida sanatoriylar va dam olish uylari yo‘llanmalari uchun o‘zgartirilgan narxlar kuchga kirgan. 2023- yilning yanvar oyida ular narxlari indeksi respublika bo‘yicha o‘rtacha **118,6 %** ni tashkil etdi.

SUG‘URTA



yanvar	o‘tgan oyga nisbatan	o‘tgan yilning yanvariga nisbatan
2020- yil	100,0	
2021- yil	100,0	100,0
2022- yil	100,0	100,0
2023- yil	100,0	100,0

MOLIYAVIY XIZMATLAR



yanvar	o‘tgan oyga nisbatan	o‘tgan yilning yanvariga nisbatan
2020- yil	100,0	
2021- yil	100,0	106,9
2022- yil	100,0	100,8
2023- yil	100,1	109,0


Joriy yilning yanvar oyida kuzatiladigan sug‘urta xizmatlari bozorida narxlar holati barqarorlikni saqlab qoldi.

Moliyaviy xizmatlar orasida pul mablag‘larini bank orqali o‘tkazish bo‘yicha xizmatlar narxlarida o‘shish kuzatildi.

Ushbu xizmat turi bo‘yicha INI oy davomida **100,4 %** ni tashkil etdi. Bu milliy valyutaning AQSH dollariga nisbatan kursidagi tebranishlari hisobiga xorijiy valyutada pul mablag‘larini yuborish uchun komission to‘lovlarning o‘zgarishi bilan bog‘liqdir.

“MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR, IJTIMOIIY HIMOYA VA TURLI TOVARLAR VA XIZMATLAR” BO‘LIMI (XIII) BO‘YICHA INI, % DA


MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR



2020- yil 2021- yil 2022- yil 2023- yil

Shaxsiy foydalanish uchun elektr asboblari bo'yicha INI oy davomida **100,1 %** ni, boshqa buyumlar bo'yicha **100,9 %** ni tashkil etdi. Sartaroshxonalar va shaxsiy xizmatlar bo'yicha mos ko'rsatkich **101,6 %** darajasida shakllandi.


SHAXSIY FOYDALANISH UCHUN BOSHQA PREDMETLAR



2020- yil 2021- yil 2022- yil 2023- yil

Ushbu guruhga kiruvchi tovarlar va xizmatlar bo'yicha INI joriy yilning yanvar oyida **100,1-100,9 %** chegarasida shakllandi. Shu bilan birga, ayrim turdagi tovarlar (ayollar sumkalari, maktab portfeli, ryukzaklar) narxlari o'tgan yilning dekabridagi darajada saqlanib qoldi.

BOSHQA XIZMATLAR



2020- yil 2021- yil 2022- yil 2023- yil

2023- yilning yanvarida boshqa xizmatlar guruhida narxlar o'sishi nusxa ko'chirish (kserokopiya) xizmatlari narxlarida kuzatildi. Ushbu xizmat bo'yicha qisqa muddatli INI **101,5 %** ni tashkil etdi.

yanvar o'tgan oyga nisbatan

yanvar o'tgan yilning yanvariga nisbatan

2023- YIL YANVAR OYIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BO'YICHA O'ZR MIIT – 2018 BO'LIMLARI KESIMIDA TOVARLAR VA XIZMATLAR NARXLARI O'ZGARISHINING YIG'MA INI O'SISHI (PASAYISHI)GA TA'SIRI, F.D.

Yig'ma ko'rsatkich o'zgarishiga har bir pozitsiyaning (bo'lim, guruh, muayyan tovar yoki xizmat) ta'sir ulushi va hissasi pozitsiyalarning narxlar o'zgarishlari va aholi xarajatlari tarkibidagi salmoq vaznlarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Narx indeksi salmog'i – narx indeksining shakllanishida qatnashuvchi o'lcham bo'lib, ular yordamida:

- kuzatilayotgan hodisalarning umumiy yig'indisidagi har bir aniq tarkibiy qismning mazmuni ifodalanadi;
- avvaldan o'zaro solishtirib bo'lmaydigan birlamchi tarkibiy qismlar taqqoslanadigan shaklga keltiriladi;
- qo'llanilayotgan tasniflagichning barcha bosqichlari bo'yicha o'zaro solishtirilishi mumkin bo'lgan tarkibiy qismlar ketma-ketligi umumlashtiriladi va o'rganilayotgan hodisa bo'yicha narx o'zgarishining umumiy mohiyati aniqlanadi.

o'tgan oyga nisbatan	YIG'MA INI O'SISH SUR'ATIGA TA'SIRI, f.d.	UMUMIY O'SISH SUR'ATIDAGI ULUSHI, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar	0,44	53,7
Kiyim va poyabzal	0,10	12,2
Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari	0,02	2,4
Uy-ro'zg'or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko'rsatish	0,04	4,9
Sog'liqni saqlash	0,07	8,5
Transport	0,06	7,3
Dam olish, sport va madaniyat	0,03	3,7
Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	0,02	2,4
Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar	0,04	4,9

Jami ta'siri **+0,82** f.d.

2023- YIL YANVAR OYIDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BO‘YICHA O‘ZR MIIT – 2018 BO‘LIMLARI KESIMIDA TOVARLAR VA XIZMATLAR NARXLARI O‘ZGARISHINING YIG‘MA INI O‘SISHI (PASAYISHI)GA TA‘SIRI, F.D.

o‘tgan yilning yanvariga nisbatan

YIG‘MA INI O‘SISH SUR‘ATIGA TA‘SIRI, f.d.

UMUMIY O‘SISH SUR‘ATIDAGI ULUSHI, % da

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar	6,05	49,6
Spirтли ichimliklar, tamaki mahsulotlari	0,09	0,7
Kiyim va poyabzal	1,10	9,0
Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari	0,52	4,3
Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko‘rsatish	0,91	7,5
Sog‘liqni saqlash	1,08	8,9
Transport	0,91	7,5
Axborot va aloqa	0,05	0,4
Dam olish, sport va madaniyat	0,33	2,7
Ta‘lim	0,09	0,7
Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	0,42	3,4
Sug‘urta va moliyaviy xizmatlar	0,02	0,2
Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar	0,62	5,1

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlarining joriy yilning yanvar oyidagi qisqa muddatli INI o‘sinh sur‘atiga ta‘siri **0,44 f.d.** ni tashkil etdi. Ushbu bo‘lim tovarlari hissasiga kuzatiladigan tovarlar va xizmatlar umuiy ta‘sirining **63,7 %** i atrofida to‘g‘ri keldi.

O‘tgan yilning yanvariga nisbatan uzoq muddatli yig‘ma INIga keladigan bo‘lsak, I bo‘limning ta‘sir ulushi **49,6 %** ga yetdi. Ushbu bo‘limda narxlar o‘zgarishlari hisobiga yillik nisbatdagi yig‘ma INI **6,05 f.d.** o‘sdi.



Narxlar statistikasi boshqarmasi,
tel.: +99871 202-80-36, 202-81-74